

AT "ALOQABANK"
2026 yil "14" avgust da
1130 -son bilan
RO'YXATGA OLINDI

AT "Aloqabank"
Boshqaruvi yig'ilishining
2026-yil 14-avgustdagi
620-sonli bayonnomasiga
ilova

**AT "Aloqabank"da tadbirkorlik subyektlariga davlat byudjeti
mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlarni samaradorligini baholash
M E T O D I K A S I**

Toshkent 2026-y.

I. Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda 784-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etilishini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash hamda asossiz olingan va maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarib olish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "Bank" deb yuritiladi) tizimida davlat byudjeti mablag'iari hisobidan kredit mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash, loyihalar samaradorligini baholash, kredit risklarini kamaytirish hamda bank aktivlari sifati ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur metodika tadbirkorlik subyektlariga byudjet mablag'lari hisobidan ajratilgan imtiyozli kreditlarni monitoring qilish mexanizmini belgilaydi.

1.3. Monitoring jarayoni tadbirkorlik subyektlarining rejalashtirilgan maqsadli ko'rsatkichlariga erishishni (biznes reja ko'rsatkichlarini bajarilishini) nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

1.4. Metodikada quyidagi asosiy atama va tushunchalardan foydalaniladi.

Dastur doirasida ajratilgan kredit - O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hamda Hukumat kafolati ostida berilgan Xalqaro tashkilotlari mablag'lari asosida berilgan kreditlar;

Maxsus vakolatli organlar — yengib bo'lmaydigan kuchlarning (fors-major holatlarining) bartaraf etilishi va tegishli xulosa taqdim etish uchun qonunchilik hujjatlari bilan vakolat berilgan davlat organlari;

Vakolatli organ — O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;

Asossiz olingan subsidiya — subsidiya olish uchun soxta ma'lumot va hujjatlar taqdim etish orqali yoki mazkur subsidiyani qonunchilikda belgilanganidan boshqa yo'nalishlarda foydalanish uchun olish;

Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadigan tashkilot — qonunchilik hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik subyektlariga qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etish bo'yicha ijobiy yoki salbiy xulosani berish hamda ularning monitoringini yuritish va samaradorligini dastlabki baholash vakolatiga ega bo'lgan davlat organi.

Monitoring – kredit mablag'larini ajratish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, ajratilgan mablag' va imtiyozlardan maqsadli hamda samarali foydalanilishini kuzatish, tahlil qilish jarayonini qamrab oladi.

Monitoring dalolatona - bu muayyan loyiha, dastur, obyekt yoki jarayonning bajarilish holatini muntazam kuzatib borish va baholash uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar hamda ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan hujjatdir.

Umumiy samaradorlik ko'rsatkich - barcha tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari samaradorligining o'rtacha miqdori;

Iqtisodiy samaradorlik — dastur doirasida tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan imtiyozli kredit mablag'lari hisobiga (ishlab chiqarish hajmining o'sishi va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotilishi natijasida daromadning oshishi) ta'sirini baholash;

Mablag'lardan maqsadsiz foydalanish - Kredit mablag'larining belgilangan maqsaddan boshqa maqsadlarga sarflanishi.

Erta ogohlantiruvchi signal - kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf yoki muammoning dastlabki belgisini ko'rsatuvchi va tezkor choralar ko'rishga asos bo'luvchi ko'rsatkich.

II. Metodologiyani qo'llash sohasi va monitoring turlari

2.1. Ushbu metodologiya talablari quyidagi davlat dasturlari doirasida ajratilgan kreditlarga nisbatan tatbiq etiladi:

2.1.1. Byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan kreditlar;

2.1.2. Hukumat kafolati ostida berilgan Xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari asosida moliyalashtirilgan kreditlar.

2.2. Mazkur metodika talablari bankning tarkibiy bo'linmalarida, hamda Hududiy kompleks xizmat ko'rsatish markaz (bundan buyon matnda "HKXKM" deb yuritiladi) va Kompleks xizmat ko'rsatish markaz (bundan buyon matnda "KXKM" deb yuritiladi)larida ish jarayonida qo'llash talabi doirasida ichki me'yoriy qoida hisoblanadi.

2.3. Monitoring tizimi davlat dasturlari doirasida moliyalashtirilgan kreditlar bo'yicha risklarni boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.4. Monitoring tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

2.4.1. kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishini o'rganish;

2.4.2. davlat mablag'larining natijadorligini baholash;

2.4.3. muammoli kreditlarni erta aniqlash;

2.4.4. shartnoma shartlari bajarilishini kuzatish.

2.5. 7. Monitoringning ikki darajali tizimi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Dastlabki monitoring (Kredit ajratilgunga qadar): Bankning biznes tarkibiy bo'linmalari tomonidan loyihani dastlabki nazorat qilish doirasida mijozning faoliyat joyi, garov mulki o'rganiladi hamda kredit va imtiyozlar bo'yicha hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Oraliq monitoring (Kredit ajratilgandan keyin): HKXKM va KXKMLarda mas'ul xodimlar tomonidan mablag'larning maqsadli ishlatilishi, mijozning moliyaviy holati barqarorligi mustaqil baholanadi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar aniqlanadi.

2.6. Monitoring jarayoni mas'ul xodimlarning vakolatlari va javobgarligi tarkibiy bo'linmalar nizomlari asosida belgilanadi.

2.7. Monitoring qilish usullari:

2.7.1. Masofaviy monitoring - bankning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, davlat axborot resurslari va qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar asosida amalga oshiriladi va quyidagilar tahlil qilinadi:

1) kredit qarzdorligi holati;

2) to'lov intizomi;

3) hisobvaraqlar aylanmalari.

2.7.2. Joyiga chiqqan holda monitoring - kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan ob'yektlarda amalga oshiriladi:

1) Monitoring paytida mijoz faoliyati olib borayotganligi;

2) ish o'rinlari yaratilganligi;

3) ishlab chiqarish jarayoni;

4) uskunalarning mavjudligi;

5) Tovar moddiy zaxiralari qoldig'i;

6) garovga qabul qilingan mulklar holati.

2.7.3. Monitoring dalolatnomasida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- 1) kredit maqsadli ishlatilganligi;
- 2) uskuna mavjudligi;
- 3) ish o'rinlari yaratilganligi;
- 4) garov holati saqlanishi;
- 5) qarz intizomining ta'minlanganligi.

2.8. Loyihalarning tahlili doirasida qarzdorning pul tushumlari, yaratilgan ish o'rinlari, mablag'lardan maqsadli foydalanish ko'zda tutiladi.

2.9. Monitoring davriyligi masofaviy tarzda har 3 (uch) oyda, joyiga chiqqan holda esa loyiha xususiyatlaridan kelib chiqib 6 (olti) oyda 1 (bir) marotaba amalga oshiriladi. Kreditni maqsadli ishlatilishini tekshirish shartnomada yetkazib berish muddatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Bunda joyiga chiqqan holda o'rganish uchun tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tartibi doirasida o'n kundan oshmagan muddatda o'tkazishga tashabbus bildiriladi va o'rganish ishlari amalga oshiriladi.

III. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va baholash tartibi

3.1. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda quyidagi mezonlardan foydalanadi:

3.1.1. mahsulotni (ishni, xizmatni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmaning o'sish sur'ati;

3.1.2. yaratilgan yangi ish o'rinlari soni;

3.1.3. kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish darajasi.

3.2. Tadbirkorlik sub'yekti iqtisodiy samaradorligi imtiyozli kreditlar taqdim etilishi natijasida haqiqatan erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning biznes rejadagi mos iqtisodiy ko'rsatkichga (maqsadli ko'rsatkich) nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

- Pul tushumlarining baholash koeffitsienti:

$$K_{CF} = \frac{CF_{haqiqatda}}{CF_{biznes-raja}}$$

Bu yerda:

K_{CF} - Pul tushumlarining baholash koeffitsienti;

$CF_{haqiqatda}$ - haqiqatan hisobvaraqqa tushgan pul tushumi;

$CF_{biznes-raja}$ - biznes-rejaga asosan pul tushumi;

Baholash shkalasi:

$K_{CF} \geq 1$ holatlarda $K_{CF} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Pul tushum koeffitsiyenti	Baholanishi
$K_{CF} \geq 1$	Yuqori iqtisodiy samarali;
$0,7 \leq K_{CF} < 1$	Iqtisodiy samarali;
$0,5 \leq K_{CF} < 0,7$	O'rtacha iqtisodiy samarali;
$K_{CF} < 0,5$	Samarasiz;

- yaratilgan ish o'rinlarini baholash koeffitsienti:

$$K_i = \frac{L_{haqiqat}}{L_{biznes-raja}}$$

Bu yerda:

K_i - yaratilgan ish o'rinlarini koeffitsienti;

$L_{haqiqat}$ - haqiqatan yaratilgan ish o'rni;

$L_{biznes-raja}$ – biznes-rejaga asosan yaratilishi lozim bo'gan ish o'rni;

Baholash shkalasi:

$K_i \geq 1$ holatlarda $K_i = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Yaratilgan ish o'rni koeffitsiyenti	Baholanishi
$K_i \geq 1$	Yuqori iqtisodiy samarali;
$0,7 \leq K_i < 1$	Iqtisodiy samarali;
$0,5 \leq K_i < 0,7$	O'rtacha iqtisodiy samarali;
$K_i < 0,5$	Samarasiz;

- Kredit mablag'ining maqsadli ishlatilishini baholash koeffitsienti:

$$K_m = \frac{C_m}{C_t}$$

Bu yerda:

K_m - maqsadli ishlatish koeffitsienti;

C_m - maqsadli ishlatilgan kredit mablag'lari miqdori;

C_t – ajratilgan umumiy kredit mablag'lari miqdori;

Baholash shkalasi:

$K_m < 1$ holatlarda $K_m = 0$ sifatida qabul qilinadi.

Maqsadli ishlatish koeffitsiyenti	Baholanishi
$K_m = 1$	Kredit maqsadli- iqtisodiy samarali
$K_m < 1$	Kredit maqsadsiz- samarasiz

3.3. Tadbirkorlik sub'yekti uchun imtiyozli kredit mablag'ining samaradorligini baholash tahlil qilingan davr uchun pul tushumlari, ishchi o'rni hamda kreditni maqsadli ishlatilganligi koeffitsientlari yig'indisining o'rtacha ko'rsatkichlari sifatida hisoblanadi:

$$K_s = \frac{(K_{CF} + K_i + K_m)}{3}$$

bu yerda:

K_s — o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi;

K_{CF} — Pul tushumlarining baholash koeffitsienti;

K_i — yaratilgan ish o'rinlarini koeffitsienti;

K_m — maqsadli ishlatish koeffitsienti.

$K_s \geq 1$ holatlarda $K_s = 1$ sifatida qabul qilinadi.

O'rtacha samaradorlik koeffitsiyenti	Baholanishi
$K_s = 1$	Yuqori samarali;
$0,7 \leq K_s < 1$	Samarali;
$0,5 \leq K_s < 0,7$	O'rta samarali;
$K_s < 0,5$	Samarasiz;

3.4. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan imtiyozli kreditlarning umumiy samaradorligi barcha tadbirkorlik subyektlarining o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichlari yig'indisini imtiyozli kreditlar soniga nisbatini hisoblash orqali baholanadi:

$$K_{s.um} = \frac{\sum_{i=1}^m K_{si}}{m}$$

Bu yerda,

$K_{s.um}$ — umumiy samaradorlik ko'rsatkichi;

K_{si} — m ta korxona uchun samaradorlik ko'rsatkichi;

m — Imtiyozli kreditlar ajratilgan tadbirkorlik subyektlari soni.

$K_{s.um} \geq 1$ holatlarda $K_{s.um} = 1$ sifatida qabul qilinadi.

Umumiy samaradorlik koeffitsienti	Baholanishi
$K_{s.um} = 1$	Yuqori samarali;
$0,7 \leq K_{s.um} < 1$	Samarali;
$0,5 \leq K_{s.um} < 0,7$	O'rta samarali;

$K_{s.um} < 0,5$	Samarasiz;
------------------	------------

3.5. Tadbirkorlik subyektining umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 50 (ellik) foizdan kam bo'lishi loyiha samarasiz deb hisoblanadi.

IV. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida salbiy tendensiyalarni barvaqt aniqlash va erta ogohlantiruvchi signallar

4.1. Erta ogohlantiruvchi signal - kredit portfelidagi loyihalarning moliyaviy, operatsion va huquqiy holati yomonlashishini oldindan aniqlash maqsadida joriy etiladi.

4.2. Erta ogohlantiruvchi signal tizimi Monitoring va kreditni limitlash departamenti tomonidan yuritiladi va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida monitoring qilinadi.

4.3. Quyidagilar erta ogohlantiruvchi indikatorlar hisoblanadi:

4.3.1. kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanishi;

4.3.2. tushumning 20% va undan ortiq pasayishi;

4.3.3. 30 (o'ttiz) kundan ortiq muddati o'tgan kredit qarzdorlik yuzaga kelishi;

4.3.4. ishchilar sonining 15% dan ortiq kamayishi;

4.4. Quyidagi holatlarda loyiha muammoli loyiha deb hisoblanadi:

4.4.1. 90 (to'qson) va undan ortiq kunlik muddati o'tgan qarzdorlik;

4.4.2. umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 50% dan past;

V. Maqsadsiz foydalanilgan kreditlarni qaytarish tartibi

5.1. Kredit ajratgan HKXKM kredit oluvchi mijoz tomonidan kredit mablag'laridan maqsadli foydalanilganligini muntazam ravishda monitoringini olib boradi.

5.2. Quyidagi hollarda kredit mablag'lari muddatidan oldin qaytariladi:

5.2.1. Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq mijoz tomonidan erishilishi lozim bo'lgan samaradorlik ko'rsatkichi bajarilmaganda, bunda kredit mablag'lari shartnoma shartlarining bajarilmagan qismiga mutanosib tarzda muddatidan oldin qaytarib olinishi mumkin;

5.2.2. Kreditdan maqsadsiz foydalanilganda;

5.2.3. Kredit oluvchi tadbirkorlik sub'yekti tomonidan tegishli hujjatlar yoki ma'lumotlarni noto'g'ri yoxud buzib ko'rsatish holatlari aniqlanganda;

5.2.4. Bank tomonida kredit oluvchi tadbirkorlik sub'yektiga ajratilgan kreditni (yoki uning maqsadsiz ishlatilgan qismini) muddatidan oldin ixtiyoriy ravishda qaytarish to'g'risida talabnoma yuboradi;

5.2.5. Kreditni ixtiyoriy ravishda qaytarish muddati 10 (o'n) ish kuni etib belgilanadi;

5.2.6. Tadbirkorlik sub'yekti belgilangan muddatda talabnomada ko'rsatilgan kredit mablag'larini va unga bog'liq to'lovlarni qaytarmasa, bank ajratilgan kreditni qaytarish va undiruvni garov mulkiga qaratish to'g'risida sudga da'vo arizasini kiritadi.

5.3. Kredit mablag'laridan samarasiz hamda maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatini shakllantiriladi.

VI. Fors-major holatlari

6.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holatlari) yuzaga kelib, kredit shartnomasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishilmaganda yoki loyiha muddati kechikganda, taqdim etilgan kredit mablag'lari bank tomonidan muddatidan oldin majburiy qaytarib olinmaydi va jarima sanksiyalari qo'llanilmaydi.

Bunda yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holatlari) yuzaga kelgan tadbirkorlik subyekti ushbu holatlarning bartaraf etilishi yoki yuz berganligi bilan bog'liq maxsus vakolatli organlarning tegishli xulosasini bankka taqdim etishi lozim.

VII. Tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini (shikoyatlarini) ko'rib chiqish tartibi

7.1. Tadbirkorlik sub'yektlari kreditlash va monitoring jarayonlari hamda bank xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda Bankka murojaat (shikoyat) qilish huquqiga ega.

7.2. Murojaat va shikoyatlar quyidagi kanallar orqali qabul qilinadi:

7.2.1. Bankning rasmiy **veb-sayti** va interaktiv portallari;

7.2.2. Bankning **"Ishonch telefoni"** yoki aloqa markazi (Call-center);

7.2.3. Bank bosh binosi hamda hududiy **tarmoqlari (HKXKM/KXKM)**;

7.2.4. Davlat organlarining **Virtual va Xalq qabulxonalari**.

7.3. Kelib tushgan murojaatlar kreditlash va monitoring jarayonlariga daxldor bo'lmagan **mustaqil tarkibiy bo'linma** tomonidan o'rganiladi va natijasi bo'yicha yozma javob beriladi.

7.4. Murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish muddatlari:

7.4.1. Arizalar kelib tushgan kundan boshlab **15 kun ichida** ko'rib chiqiladi;

7.4.2. Qo'shimcha o'rganish va tekshirish talab etilganda **1 (bir) oygacha** uzaytirilishi mumkin.

7.5. Monitoring yuzasidan kelib chiqqan nizoli holatlar Bank Boshqaruvi tomonidan tuziladigan **Apellatsiya komissiyasi** tomonidan ko'rib chiqiladi va tadbirkorga yozma javob beriladi.

VIII. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur Metodika talablari bankning tarkibiy bo'linmalari, hamda HKXKM va KXKMlar uchun majburiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur Metodika bilan belgilangan tartiq-qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilangan me'yorlarga mos kelmagan taqdirda amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar ustun bo'lib, ularga ro'yiya qilinadi.

8.3. Mazkur Metodika o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Namunaviy misollar:

1. "A" MChJning Biznes-rejadagi pul tushumi joriy yilning birinchi yarim yillicida 100 mln so'm miqdorida belgilangan. Haqiqatda 120 mln so'm pul aylanmasini amalga oshirdi. 10 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan, amalda 11 ta yaratilgan. 500 mln so'm kredit to'liq maqsadli ishlatilgan bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik koeffitsientlarini aniqlaymiz:

1) Pul tushumi koeffitsienti: $K_{CF} = \frac{120}{100} = 1,2$, $K_{CF} \geq 1$ bo'lsa $K_{CF} = 1$ deb olinadi.

2) Yaratilgan ish o'rinlarini baholash koeffitsienti: $K_i = \frac{11}{10} = 1,1$
 $K_i \geq 1$ bo'lsa $K_i = 1$ deb olinadi.

3) Kredit mablag'ining maqsadli ishlatilishini baholash koeffitsienti:
 $K_m = \frac{500}{500} = 1$

4) O'rtacha samaradorlik koeffitsienti: $K_s = \frac{(K_{CF} + K_i + K_m)}{3} = \frac{(1 + 1 + 1)}{3} = 1;$

Baholanishi: "Yuqori samarali" $K_s = 1$

2. "B" MChJning Biznes-rejadagi pul tushumi joriy yilning birinchi yarim yillicida 200 mln so'm miqdorida belgilangan. Haqiqatda 160 mln so'm pul aylanmasini amalga oshirdi. 5 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan, amalda 4 ta yaratilgan. 400 mln so'm kredit to'liq maqsadli ishlatilgan bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik koeffitsientlarini aniqlaymiz:

1) Pul tushumi koeffitsienti: $K_{CF} = \frac{160}{200} = 0,8;$

2) yaratilgan ish o'rinlarini baholash koeffitsienti: $K_i = \frac{4}{5} = 0,8;$

3) Kredit mablag'ining maqsadli ishlatilishini baholash koeffitsienti:
 $K_m = \frac{400}{400} = 1$

4) O'rtacha samaradorlik koeffitsienti: $K_s = \frac{(K_{CF} + K_i + K_m)}{3} = \frac{(0,8 + 0,8 + 1)}{3} = 0,86;$

Baholanishi: Samarali $0,7 \leq K_s < 1$

3. "C" MChJning Biznes-rejadagi pul tushumi joriy yilning birinchi yarim yilligida 150 mln so'm miqdorida belgilangan. Haqiqatda 60 mln so'm pul aylanmasini amalga oshirdi. 8 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan, amalda 3 ta yaratilgan. 400 mln so'm kredit mablag'ining 300 mln so'm maqsadli ishlatilgan bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik koeffisientlarini aniqlaymiz:

1) Pul tushumi koeffitsienti: $K_{CF} = \frac{60}{150} = 0,4;$

2) yaratilgan ish o'rinlarini baholash koeffitsienti: $K_i = \frac{3}{8} = 0,375;$

3) Kredit mablag'ining maqsadli ishlatilishini baholash koeffitsienti:

$K_m = \frac{300}{400} = 0,75$ ($K_m < 1$ bo'lsa $K_m = 0$ deb olinadi.)

4) O'rtacha samaradorlik koeffitsienti: $K_s = \frac{(K_{CF} + K_i + K_m)}{3} = \frac{(0,4 + 0,375 + 0)}{3} = 0,26;$

Baholanishi: Samarasiz $K_s < 0,5$. (Loyiha samaradorligi 50 foizdan kam ($0,26 < 0,50$) bo'lgani uchun loyiha mutlaqo samarasiz deb topiladi va kredit monitoring hujjati asosida muddatidan oldin qaytarib olish chorlari ko'riladi.)

Ajratilgan imtiyozli kreditlarning umumiy samaradorligi

$$K_{s.um} = \frac{\sum_{i=1}^3 K_{si}}{3} = \frac{(1 + 0,86 + 0,26)}{3} = \frac{2,12}{3} = 0,71$$

Baholanishi: Ajratilgan imtiyozli kreditlarning umumiy portfeli "Samarali"

$0,7 \leq K_s < 1$